

MUAMMOLI KREDITLARNI BAHOLASH VA BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY YECHIMLARI

Turayeva Gulizaxro

Guliston davlat universiteti dotsenti

Mamadaliyeva Shahlo

Nazarova Shahnoza

Mirzaliyeva Mehrinso

Guliston davlat universiteti talabalari

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi tijorat banklarida muammoli kreditlarni aniqlash, baholash va samarali boshqarishning amaliy va nazariy jihatlari keng qamrovli tahlil qilingan. Kredit riski darajasini pasaytirish, kredit portfeli sifatini yaxshilash hamda banklar moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiluvchi usullar o'rganilgan. Shuningdek, O'zbekiston bank tizimidagi muammoli kreditlar holati statistik ko'rsatkichlar yordamida tahlil qilinib, ularni tashkiliy-va moliyaviy mexanizmlar orqali kamaytirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kredit riski, muammoli kredit, IFRS 9, restrukturizatsiya, garov, kredit portfeli, moliyaviy barqarorlik, risklarni boshqarish.

Аннотация. В диссертации представлен комплексный анализ практических и теоретических аспектов выявления, оценки и эффективного управления проблемными кредитами в коммерческих банках. Исследованы методы снижения кредитного риска, повышения качества кредитного портфеля и укрепления финансовой устойчивости банков. Проведен анализ состояния проблемных кредитов в банковской системе Узбекистана с использованием статистических показателей, а также разработаны предложения и рекомендации по их снижению посредством организационных и финансовых механизмов.

Ключевые слова: кредитный риск, проблемные кредиты, МСФО 9, реструктуризация, обеспечение, кредитный портфель, финансовая устойчивость, управление рисками.

Annotation. This thesis provides a comprehensive analysis of the practical and theoretical aspects of identifying, assessing and effectively managing problem loans in commercial banks. Methods for reducing credit risk, improving the quality of the loan portfolio and strengthening the financial stability of banks are studied. Also, the state of problem loans in the banking system of Uzbekistan is analyzed using statistical indicators, and proposals and recommendations are developed to reduce them through organizational and financial mechanisms.

Key words: credit risk, problem loan, IFRS 9, restructuring, collateral, loan portfolio, financial stability, risk management.

KIRISH

Tijorat banklarida muammoli kreditlarni aniqlash, baholash va boshqarish masalasi bugungi kunda bank tizimining barqaror faoliyati uchun eng muhim shartlardan biridir. Kredit iqtisodiyotda pul oqimlarini harakatga keltiruvchi asosiy vosita bo'lib, ishlab

chiqarish jarayonlari, investitsiya loyihalari va aholining iste'mol imkoniyatlarini kengaytiradi. Kredit bank faoliyatining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, iqtisodiyotda pul oqimini ta'minlaydi, ishlab chiqarish jarayonlarini qo'llab-quvvatlaydi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning investitsion faolligini oshiradi. Shu bilan birga, kreditlash jarayoni yuqori darajadagi risk bilan bog'liq bo'lib, ayniqsa muammoli kreditlar bank tizimining barqarorligiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Muammoli kreditlar — bu 90 kundan ortiq muddatda qaytmayotgan yoki to'lov intizomi buzilgan kreditlar bo'lib, ularning ortishi bankning likvidligi, rentabelligi va kapital yetarliligiga sezilarli xavf tug'diradi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tijorat banklarining kredit portfeli sifatini oshirish, kredit risklarini real baholash va monitoring mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Statistika ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilda muammoli kreditlar ulushi 5,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 4,1 foizgacha kamaydi. Bu esa mamlakat bank tizimida risklarni boshqarish siyosati bosqichma-bosqich samarali yo'lga qo'yilayotganidan dalolat beradi.

1-jadval

O'zbekiston tijorat banklarida muammoli kreditlar ulushi (2020-2024-yillar, %)

Yil	Umumiy kredit portfeli (mlrd so'm)	Muammoli kreditlar (mlrd so'm)	NPL ulushi (%)
2020	300 000	17 400	5,8
2021	340 000	16 320	4,8
2022	385 000	17 000	4,4
2023	430 000	18 000	4,2
2024	475 000	19 480	4,1

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, so'nggi yillarda tijorat banklarining kredit portfelida muammoli kreditlar ulushi izchil ravishda kamayib bormoqda. Bu jarayon, avvalo, kredit tahlili, monitoring mexanizmlari va risklarni boshqarish tizimining takomillashgani bilan izohlanadi. Banklarning kredit siyosatida prudensial yondashuvning kuchaytirilishi, qarz oluvchilarning moliyaviy ahvolini baholashda zamonaviy tahliliy vositalardan foydalanilishining kengayishi ham kredit portfeli sifatining yaxshilanishiga xizmat qilmoqda. Birinchi navbatda, kredit oldi tahlilini chuqurlashtirish, mijozning moliyaviy ko'rsatkichlari, biznes-reja asoslanganligi, qarz yuklamasi darajasi va eski kredit tarixini to'liq baholash zarur. Mijoz reytingini joriy etish orqali har bir qarz oluvchi bo'yicha risk darajasi aniq belgilanadi va kredit summasi yoki to'lov jadvali shu asosda shakllantiriladi.

Shuningdek, kredit portfeli bo'yicha avtomatlashtirilgan monitoring tizimini yo'lga qo'yish — muammoli kreditlar bilan bog'liq xavflarning erta aniqlanishiga xizmat qiladi. Bunday tizimlar qarzdorning kirim-chiqim dinamikasi, bank operatsiyalari, to'lovlarning o'z vaqtida amalga oshirilishi kabi omillarni muntazam kuzatib boradi va xavf belgilarini dastlabki bosqichda ko'rsatadi. Garov qiymatini bozor sharoitidan kelib chiqib qayta baholash ham muhim choralardan biridir. Ko'chmas mulk yoki boshqa aktivlar qiymatining pasayishi kreditning qoplanish darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli banklar garov aktivlarini faqat kredit berish paytida emas, balki kredit muddati davomida ham muntazam ravishda qayta baholashi lozim.

Muammoli kreditlar bilan ishlashda kreditlarni restrukturizatsiya qilish va qayta moliyalashtirish mexanizmlaridan samarali foydalanish ham yaxshi natija beradi. To'lovga qiynalayotgan mijoz uchun jadvalni qayta tuzish, foiz stavkasini pasaytirish yoki muddatni uzaytirish kreditning qaytish ehtimolini oshiradi va uni muammoli toifaga o'tishidan saqlab qoladi. Shuningdek, bank xodimlarining malakasini doimiy oshirish, kredit bo'yicha ichki audit tizimini kuchaytirish, kredit bo'yicha qaror qabul qiluvchi mutaxassislarning mas'uliyatini oshirish ham kredit portfeli sifatining yaxshilanishiga xizmat qiladi. Xodimlarning xalqaro standartlar bo'yicha o'qitilishi, zamonaviy kredit tahlili metodologiyasini o'zlashtirishi kreditlar bilan ishlash jarayonini ancha takomillashtiradi.

XULOSA

Muammoli kreditlar banklarning moliyaviy holatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ularni samarali boshqarish orqali bank kapitalining barqarorligini ta'minlash, kredit portfeli sifatini yaxshilash va iqtisodiyotga yo'naltirilgan resuslardan samarali foydalanish mumkin. Shu bois har bir tijorat banki o'zining risk boshqaruvi strategiyasini takomillashtirishi, zamonaviy baholash modellarini joriy qilishi va kredit faoliyatini raqamlashtirish orqali shaffoflikni oshirishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. "Bank tizmi ko'rsatkichlari to'plami". 2024-yil hisoboti.
2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. "Kredit portfeli va banklar faoliyati bo'yicha yillik hisobotlar." 2020–2024.
3. IFRS9-Financial Instruments: International Accounting Standards Board, 2018.
4. Karimov A. "Bank risklarini boshqarish nazaryasi va amalyoti", Iqtisodiyot nashiryoti, 2020 aunders, A. & Cornett, M.
5. "Financial Institutions Management: Risk Management Approach". McGraw-Hill, 2020.